

Siz – Vladivostok markazidasiz

TOP-20

Nimalar qilish mumkin?

Vladivostokda TOP mashg'ulotlar:

- Shahar ramzlari – Oltin shox (Zolotoy Rog) ko'rfazi ustidan o'tgan Oltin ko'pri va Rus ko'prigini suratga olish
- "Orlinoye gnezdo" yoki Burachka tepaliklaridagi kuzatuv maydonchalaridan shahar va ko'priklarning go'zal manzarasini tomosha qilish
- Korabelnaya sohili bo'ylab sayr qilish, dengiz yodgorliklari majmuasini ko'zdan kechirish va sayrni Sesarevich sohilbo'yida davom ettirish
- Vladivostok ko'rfazlari bo'ylab sayohat kemasi, sapbord yoki hatto syorfa suzish
- S-56 suv osti kemasi bortiga chiqish, «Pallada» yoki «Nadejda» fregatlari bo'ylab ekskursiyada ishtirok etish
- «Vladivostok Arbati» – Admiral Fokin ko'chasi yoki bar va restoranlarga boy Svetlanskaya ko'chasi bo'ylab sayr qilish
- Rossiyadagi birinchi Chinatown – "Millionka" mahallasining o'ziga xos muhitini his qilish
- Tokarevskiy mayog'i yaqinidagi plyajlardan birida hordiq chiqarish
- Rossiya Fanlar akademiyasining Uzoq Sharq bo'limi botanika bog'ida o'simliklar olamiga sho'ng'ish
- Arsenyev nomidagi muzeyda Uzoq Sharq tarixini o'rganish
- Primorskiy davlat suratlar galereyasida rassomlar asarlaridan bahra olish
- Mariinskiy teatrining Primorskiy sahnasida spektakl tomosha qilish
- Vladivostok sirkida bolalik xotiralarini yodga olish

Vladivostokdan tashqaridagi TOP mashg'ulotlar:

- Rus oroli va Tobizin burni tabiatidan zavqlanish.
- Dunyo bo'yicha to'rtinchi eng katta okeanarium – Primorskiy okeanariumiga borish
- Vladivostok atrofidagi orollar, ko'rfazlar va burunlar bo'ylab dengiz ekskursiyasiga chiqish
- Shamora (Lazurnaya ko'rfazi) – Vladivostokning eng mashhur plyaji (28 km) va Steklyannaya ko'rfazidagi plyajda dam olish
- Safari-parkda jonivorlarni tabiiy sharoitda, to'siqlarsiz tomosha qilish
- Tabiiy muhitda tyulenlar, dengiz sherlari va hatto kitlarni kuzatish
- Eng chiroyli mayoqlar fotosuratlarini "ovlash"



CENTRUMAIR

**CENTRUM
HOLIDAYS**



Bilasizmi...

...Vladivostok Sochi bilan bir xil kenglikda joylashgan, shuning uchun bu yerda ham moviy suvli qumli plyajlarda dam olish mumkin

...Vladivostokda dunyodagi eng uzun vantli ko'prik – Rus ko'prigi joylashgan

...Vladivostokni ko'pincha Istanbul, San-Fransisko, Mayami va Neapolga qiyoslashadi

Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- Uzoq Sharq yovvoyi o'simliklaridan tayyorlangan ne'matlar
- «Chifanka» – shinam xitoy tamaddixonalari taomlari
- Dengiz mahsulotlari – ayniqsa dengiz taroqchalari (grebeshok)
- Yapon oshxonasi delikateslari
- «Podolskiy kirpich» noni



Nimalar olib kelish mumkin?

- Telnashka (an'anaviy yo'l-yo'l dengizchi maykasi)
- Ikra va krablar
- Dengiz tuzi qo'shilgan shokolad
- Uzoq Sharq kedr yong'og'i
- Koreys va yapon kosmetikasi

